

“SHUM BOLA” QISSASINING TIL XUSUSIYATLARI

Tojiboyeva Feruza Ibrohimjonovna¹

¹ Namangan viloyati Mingbuloq tumani

27-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Tel: +998999718134 el.pochta: tojiboyevaferuza@gmail.com

MAQOLA
MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 08.12.2024

Revised: 09.12.2024

Accepted: 10.12.2024

Millat ruhni to'laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror vosita badiiy adabiyotga teng kela olmaydi. G'afur G'ulomning asarlari ham ana shunday qudratga va salohiyatga ega.

KALIT SO'ZLAR:

Har bir millatning madaniy darajasini belgilashda uning adabiyoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi, chunki milliy adabiyot millat ruhini aks ettiradi.

KIRISH. Har bir millatning madaniy darajasini belgilashda uning adabiyoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi, chunki milliy adabiyot millat ruhini aks ettiradi. Millat ruhni to'laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror vosita badiiy adabiyotga teng kela olmaydi. G'afur G'ulomning asarlari ham ana shunday qudratga va salohiyatga ega. “Shum bola” qissasining tarbiyaviy ahamiyati, voqealarining rang-barangligi, quvnoq o'spirinning hazillari, urushdan keyingi yillardagi insonlarning ijtimoiy holati, insonlar ruhiyati izchil va yorqin yoritib berilgan. Asar matni bilan tanishish jarayonida quyidagi til xususiyatlari e'tiborimizni tortdi va guruhlariga tasnifladik:

1. Asar matnida qo'llangan shaxs nomlari
2. Asar matnida qo'llangan ibora va maqollar
3. Asar matnida qo'llangan joy nomlari

4. Asar matnida qoʻllangan bolalar oʻyinlari, qushlar, gullar nomlari
5. Asar matnida qoʻllangan kiyim va ovqat nomlari
6. Asar matnidagi oʻxshatishlar qatnashgan gaplar

Gʻafur Gʻulom mahoratli ijodkor va soʻz boyligi yuqori adib sifatda “Shum bola” qissasini qanchalar mehr bilan bitganiga ishonish mumkin.

1. Asar matnida aniqlangan shaxs nomlari. “Shum bola” asarini oʻqish davomida 100 dan ortiq shaxs nomlari qoʻllangani aniqlandi va quyida ulardan ayrimlarini keltirib oʻtamiz: Omon¹, Sariboy boʻlis, Hoji bobo, Shehe, Muhammadbiy, Adol, Latifaxon, Muslim, Hoji Abdulaziz, Shohidoyat, Sharifjon, Olim qozi, Orifxoʻja eshon, Mittixon,

¹Gʻafur Gʻulom. Shum bola. – Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2011. –B.4 (keyingi oʻrinlarda shu nashrga murojaat qilinadi va sahifalar qavs ichida koʻrsatiladi)

Mamatraim, Abdullaxoʻja, Karim qori, Yoqub, Qodir aka, Shamsi domla, Hasanboy domla, It Obid, Bit Obid, Turobboy, Tursunboy, Yoʻldosh, Husni, Solih, Abdullo, Poʻlatxoʻja, Miraziz, Zohid, Rasulqoʻzi, Ziyamat, Omonboy, Husnibiy, Aziz, Yoqubbek, Rizqi, Imom Hasan, Imom Husan, Solih Miraziz, Sulton kissavur, Abdurayim, Mulla aka, Bahovuddin, Gavsul aʼzam, Eshon, Zebixon, Toʻxtajonboy, Kaufman, Qahramoni qotil, Xalifayi Rumday, Abu Muslim, Hoji, Oysha yallachi, Risol yallachi, Savri yallachi, Mirsalim, Xrosoniy, Nasri sayyori, Ahmadali, Ubay, Abdulla, Rafiq, Valentina Fyodorovna, Sofiya, Abdurahmon, Hoji Najmiddin ibn Salohiddin, Muzaffar, Muhammad Mustafo, Fotima, Zuhro, Hasan, Husan, Hamroqul qori, Sarrof, Saddi battol goʻdiy, Yaxshiqiz kampir, ...

- Eng uzun ism: *Mullamuhammad Sharif binni Mullamuhammad Latif ibn Gavsil aʼzam*. (34-bet)

- Eng koʻp qoʻllangan ism *Omon*. Bu soʻz adib tomonidan 124 marta tilga olingan.

Shaxs ismlarini jamlagandan soʻng quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

1. *Asarda qoʻllangan jinnilar nomi*: Asra kal, Mayramxon, Malla jinni, Eshon oyi, Tojixon jinni, Olim jinni, Karim jinni, Xol parang, Juft kaptar jinni, Avaz jinni.

2. *Asarda qoʻllangan tarixiy shaxs nomlari*: Nikolay, Mochalov, Kaufman, Afgʻon amiri Sulton Abdurahmon, Ukkosha, Madalibek, ...

2. Asar matnida qoʻllangan maqol va iboralar. Gʻafur Gʻulom soʻz va maqol qoʻllashga usta yozuvchi sanaladi. Asarda ulardan mohirona foydalanilgan va asar tilining taʼsirchanligini oshirgan:

“Semizlikni qo'y ko'tarar deganlardek, Omonga badavlatlik yo'qmas edi” (23-bet)
“Yaxshi buzoq ikki onani emibdi degandek o'zing epchil bo'lsang, ota topib olasan” (104-bet)
“Yangi yorni ko'rganda, esisidan kechmoq kerak deganlaridek Oysha yallachiga qiyo boqmay qo'ydi” (120-bet)
“Ko'zim og'ilxonaning tomiga qo'yilgan narvonga tushib qoldi” (47-bet)
“Shuning bilan “yopiqlik qozon-yopiqlik”, meni chiqarib, chiqishimda “tuya ko'rdingmi-yo'q” qilib, menga qasam ham ichirdilar”(53-bet).
“Xo'rozday qizil yuzlaridan “nur yog'ilib” turgan, hast eshon yerni “minnatdor bo'lsang bosaman” deb chiqib keldi” (59-bet).
“Qora po'stakdan burga qidirish qiyin” deganday, shahardan meni kim ham topib ola qolardi?” (97-bet).
“O'g'ri qarisa so'fi, g'ar qarisa parixon bo'ladi” deb bekorga aytmagan-da” (31-bet).

3. Asar matnida qo'llangan joy nomlari. Asarning bosh qahramoni Toshkentning ko'p tumanlarida sargardon kezganligi tufayli G'afur G'ulom ancha joy nomlarini tilga olgan:

1. *Katta shahar, davlat nomlari:* Toshkent, Marg'ilon, Farg'ona, Oltiariq, Quva, Eron, Turon, Hindiston, Rum, Chinmochin, Iroq, Badaxshon, Mozandaron, Makkatullo, O'rta Osiyo, Shayxantovur, Buxoro, Kattaqo'rg'on, O'ratepa, Xo'jand, Qashqar, Irbit, Isfarxon, Chimkent, ...

2. *Qishloq nomlari:* Ko'kterak, Chuvalachi, Quri Kalas, Sariog'och, Qorasaroy, Eshonbozor, Qoplonbek, Sharobxona, Kappon...

3. *Mahalla nomlari:* Tikanlimozor, Qoratosh, Yalanqari, Olmazor, Devonbegi, Qo'rg'ontegi,...

4. Asar matnida qo'llangan bolalar o'yinlari, kasb-hunar, qushlar va gullar. Aniqlangan ma'lumotlarni quyidagi guruhlar asosida taqdim etiladi:

1. *Oqshom o'yinlari:* kurash, “Botmon-botmon”, “Oq terakmi-ko'k terak”, “Qushim boshi”, “Mindi-mindi”, “O'g'ri keldi”, “Bekinmachoq”(6-bet).

2. *Kunduzgi o'yinlar:* oshiq o'yini, yong'oq o'yini, to'p o'yini, zumchillak, yov-yov, o'q kamalak otish, yalang'och poyga, ot o'g'risi(6-bet).

3. *Kasb-hunar otlari:* kosib, qorovul, xodimgar, meshkob, otboqar, hammol, so'fi, folbin, to'qimdo'z, chegachi, chirog'bon, mumfurush, bo'yoqfurush, pichoqchi, yakanchi (eski-tuski yig'uvchi), g'o'zafurush, hofiz, kirosinfurush, mo'ynado'z (7-bet).

4. *Qushlar:* sutti, baliqchi, chittak, itolg'I, kalxat, zarg'oldoq, ukki, miqqiy, qarchig'ay, qirg'iy, dakang xo'roz, amirkon xo'roz, to'ti, kaklik, bedana, qumri, sa'va, bulbul, mayna (12-bet)

5. *Gullar*: gulbeor, gulra`no, gulsafsar, gulhamishabahor, qo`qongul, qalampirgul, namozshomgul, sambitgul, atirgul, kartoshkagul, qashqargul (12-bet). 5.

Asar matnida aniqlangan kiyim va ovqat bildiruvchi otlar. G`afur G`ulom qissani yoritishda juda katta ma`lumotlar va so`zlar jamlanmasidan foydalangan.

1. *Kiyimlarni bildiruvchi otlar*: yaktak, qala kovush, shohi qiyiq, xolparang ro`mol, bo`z ko`ylak-ishtonli, sag`ri kovush, yolpo`sh, tik yaktak, do`ppi, shim, salla, to`n, laxtak, belbog`, oporka, chopon, duxoba qalpoq, hindcha to`n-abo,...

2. *Ovqatlarni bildiruvchi otlar*: g`oja, kartoshka somsa, zog`ora, oqshoq, bo`tqa, palov, jigarkabob, umoch, bug`doy go`ja, tariq go`ja, tuxum, so`k, qurt, osh, ayron, bo`za, chap-chap non, sho`rva, ...

**6.Asar matnida o`xshatish qatnashgan gaplar.** “Shum bola” asarini o`qish davomida 93 ta o`xshatishlar qatnashgan gaplar aniqlandi. Adib o`rni bilan asar matnida o`xshatishlardan unumli foydalangan va asar tilining ta`sirchanligini oshirgan. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:

“Endigina tilga kirayotgan uch yasharlik qizlardek, to`ti biyron sayrardi” (4-bet), “Zirapchani nina bilan olganday, jinnining gapi jinniga ma`qul tushdi” (5-bet), “Uyat ish qilib qo`ygan boladay, serrayib o`tirma”(34-bet), “Sirlangan xumchaga tushgan sichqonday to`rt tomonga alanglab, o`zinga bir najot yo`li qidirar edim”(47-bet), “Qo`ylarni qidirish qorong`i kechada qora palos ustida qora chumolining qora ko`zini qidirishday qiyin edi”(79-bet), “Omonning ko`zlari changdan paxsa devorga munchoq qadalganday yaltirar edi”(79-bet), “Qolgan 5 qo`yni qidirish quduqqa tushgan nozik munchoqni qidirishday gap edi” (79-bet), “Qo`ylar xuddi sutga tushgan sichqonday boshlarini ko`tarib suzar edi”(81-bet), “Har ikkovimizning yuragimiz dard tekkan terak yaprog`iday qaltirab turibdi”(82-bet), “Bozorning chekkasiga chiqib it quvgan soqovday nafasimiz ichimizga tiqilgan”(83-bet), “Omon palag`da tuxum yutganday o`qchib, ijirg`anib so`zimni tingladi”(96-bet), Ko`knorining isiriq solgan dekchasiday, badbo`y shaharda men dimiqib ketaman”(97-bet), “Onam sho`rlikning ro`zg`origa jodiday jag` bilan borishim o`ng`aysiz”(97-bet), “Ariqlarning cheti ko`kka tekkan sigirning qaymog`iday yupqa shirava bog`laydi”(98-bet), “Kitob ortilgan eshakday bebahra qolib ketaveraman”(103-bet), “Omon ovozlari mis barkashni pichoqning uchi bilan qirganday chiyillab ajralib turardi”(147-bet), “Xuddi ajoyibxonadan yo`lbars bo`shab chovut qilganday ularning o`takasi yorildi”(154-bet).

Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, G`afur G`ulom badiiy so`z ustasi, mahoratli yozuvchi. Urushdan keyingi og`ir yillarda ulg`aygan bo`lishiga qaramay, haroratli asarlar yoza oldi. Mana shu nursiz, qabohat va jaholatga to`la muhitni yosh bola nigohi

orqali rang-barang mazmunga to'la holda tasvirlay oldi. Ustoz Said Ahmad G'afur G'ulomdan "Shum bola"ning davomini yozish haqidagi so'roviga shunday javob bergandi: "Buyog'ini sizlar yozasizlar. Sen yozasan. Shum bola endi akademik, laureat, deputat..."¹⁵. Keyingi yillar davomida juda ko'p asarlar, shum bolalar yaratildi, lekin hech bir asar o'zbek adabiyotida G'afur G'ulom yaratgan Shum bola obrazidan o'ta olmadi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim.- Toshkent.: Sano-standart, 2014.
2. Saidov O', Muslimova S. Adabiyot darslarida o'quvchilarni faollashtirish.- Toshkent.:Tasvir, 2014.
3. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. –Toshkent.: O'zinkomsetr, 2003.
4. G'afur G'ulom. Shum bola. –Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2011.
5. Yo'ldoshev Q. Adabiyot. Darslik. 6-sinf. –Toshkent.: Ma'naviyat, 2017
6. Qodirov V. Noan'anaviy darslar. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. –Andijon.: 1996.

¹⁵ Said Ahmad. Yo'qotganlarim va topganlarim.- Toshkent.: Sano-standart, 2014. –B.46.